



## NAVOIY VILOYATI NAVOIY SHAHAR HOKIMINING QARORI

2026-yil 17-aprel

45-5-79-Q/26

Navoiy shahar hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda­gi “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-243-sonli Farmoni hamda Navoiy viloyat hokimining 2026-yil 24-fevral 42-5-0-Q/26-qarori ijrosini ta’minlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda­gi “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-243-sonli Farmoni hamda Navoiy viloyat hokimining 2026-yil 24-fevralda­gi 42-5-0-Q/26-qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

#### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda­gi “Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-243-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi negizida tashkil etilganligi hamda uning huquqiy vorisi etib belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari tasdiqlanganligi;

2026-yil 1-yanvardan boshlab Agentlikning umumiy muvofiqlashtiruvi ostida Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Namangan va Surxondaryo viloyatlari hokimliklari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-oktabrda­gi PQ-298-son qarorida belgilangan “Yangi O‘zbekiston qiyofasida­gi tuman (shahar)” maqomidagi 33 ta tuman (shahar) hokimliklarida tajriba-sinov tariqasida boshqaruv tizimi joriy etilganligi;

Davlat boshqaruvida “vazifa - funk­siya - resurs - javobgarlik” zanjiri asosida samaradorlikni oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasi tasdiqlanganligi;

Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar hokimning moliya-iqtisod va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha birinchi o'rinbosari — shahar iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i O'.Haqberdiyev natijadorlik bo'yicha mas'ul (Chief Evaluation Officer — CEO) etib belgilansin hamda uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklansin:

o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan shahar hokimligining tarkibiy tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish;

hokimlik faoliyatida belgilangan natijalarga erishilishi yuzasidan monitoring olib borish va samaradorlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Shahar hokimligi boshqaruv apparatida korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o'tkazish tizimi joriy etilsin, unga ko'ra: quyidagilar diagnostikadan o'tkaziladi:

2027-yil 1-yanvardan boshlab davlat boshqaruv organlarida korrupsiyaviy xavfxatar darajasi "yuqori" va "o'rta" bo'lgan funksiyalar yuklatilgan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar va ushbu lavozimlarga nomzodlar;

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining buyurtmasiga muvofiq Agentlik huzuridagi Rahbar kadrlarni baholash markazi tomonidan diagnostika o'tkaziladi.

Bunda xodimlarni diagnostikadan o'tkazish xarajatlari tegishli hokimlik tomonidan qoplanadi;

diagnostika natijasiga ko'ra xodimning korrupsiyaga barqarorlik darajasi "past" deb baholanishi mazkur lavozimda mehnatga oid munosabatlarni davom ettirishiga monelik qiluvchi holat hisoblanadi hamda xodim korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "past" bo'lgan boshqa lavozimga majburiy ravishda rotatsiya qilinadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan davlat organlarida bo'sh bo'lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallashda quyidagilarni nazarda tutuvchi yangicha tizim joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin, unga ko'ra 2026-yil 1-martdan boshlab:

a) davlat fuqarolik xizmatida mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar "vacancy.gov.uz" elektron platformasida e'lon qilinadi;

b) fuqarolarga o'zlariga ma'qul keladigan mutaxassislik, lavozim va ish haqiga oid talablarni belgilagan holda "vacancy.gov.uz" elektron platformasida "ish qidiruvchi" maqomida ro'yxatdan o'tish imkoniyati yaratiladi;

v) "vacancy.gov.uz" elektron platformasida ro'yxatdan o'tgan va davlat fuqarolik xizmatiga kirish bo'yicha test sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan fuqarolar ushbu platformada mavjud bo'sh ish o'rinlariga da'vogarlik qilishi mumkin bo'ladi. Bunda:

fuqarolarga test sinovlarini shaxsni tasdiqlash va sinovlarni nazorat qilishning maxsus onlayn tizimi orqali yoki Agentlikning maxsus jihozlangan xonalarida topshirish imkoniyati yaratiladi; test natijalari 1 yilgacha amal qiladi;

g) bo'sh bo'lgan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tanlovlarda nomzodlarning malaka talablarini ko'rib chiqish bosqichini avtomatlashtirish hisobiga inson omili istisno qilinadi;

d) tanlovning qo'shimcha bosqichi sifatida o'tkaziladigan sohaviy bilimlarni baholash bo'yicha test sinovlari davlat organlarining buyurtmalariga muvofiq Agentlik huzuridagi Rahbar kadrlarni baholash markazi tomonidan shartnoma asosida o'tkaziladi.

Bunda sohaviy test savollari davlat organlari tomonidan taqdim etiladi;

j) davlat organlari bo'sh davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga nomzodlarni "vacancy.gov.uz" elektron platformasida ro'yxatdan o'tgan va qiziqish bildirgan fuqarolar orasidan tanlov asosida saralab oladi.

Bunda tanlov bosqichlari Agentlik bilan kelishgan holda ish beruvchi tomonidan belgilanadi.

6. Shahar hokimining ayrim qarorlariga 1-ilovaga, Navoiy shahar hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasiga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

7. Navoiy shahar hokimligi bosh hisobchisi (Bo'matova) mazkur qarorga asosan belginlagan tartibda shtatlar jadvaliga o'zgartirish kiritish choralarini ko'rsin.

8. Mazkur qaror ijrosining nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

**Shahar hokimi**



**D.Ergashev**

Navoiy shahar hokimining  
2026-yil 17-apreldagi  
45-5-79-Q/26-son qaroriga  
1-ilova

### **Navoiy shahar hokimining ayrim qarorlariga kiritiladigan o'zgartirishlar**

1. Shahar hokimining 2019-yil 9-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmoni ijrosi to'g'risida"gi Q-177-sonli qarorida:

3-bandining birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"shaharlar va tumanlar hokimliklari, viloyat boshqarmalari hamda tashkilotlari rahbarlariga:

o'z boshqaruvidagi kadrlar bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etishni Boshqaruv samaradorligi agentligi va tegishli ravishda uning filiallari bilan kelishilgan holda amalga oshirish hamda ularning har uch yilda Boshqaruv samaradorligi agentligida attestatsiyadan o'tkazish tartibiga rioya etilishini".

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 9-apreldagi 212-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimining 2025-yil 17-apreldagi "Hokimlik tashkiliy-kadrlar guruhi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 96-5-0-Q/25-sonli qarorida:

a) 1-ilovasi 3-bandining birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:


"viloyat, tuman va shahar hokimliklari boshqaruv apparati tashkiliy-kadrlar guruhi rahbarlari o'z faoliyatida bevosita hokimga bo'ysunadi hamda hokimning maslahatchisi maqomiga ega bo'ladi";

b) 1-ilovasi 4-bandi quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

shahar hokimligi boshqaruv apparati tashkiliy-kadrlar guruhlariga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funktsiya va vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi".

Navoiy shahar hokimining  
2026-yil 17-apreldagi  
45-5-79-Q/26-son qaroriga  
2-ilova

## Navoiy shahar hokimligi boshqaruv apparatining TUZILMASI



1. Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni - 26 nafar;

2. \*Shahar hokimligi apparati shtat birliklari soniga qo'shilmaydi